
Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi A.Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabulda jami 30 nafar fuqarolarning murojaatlari ko'rib chiqildi. Unda tadbirkorlik, uy-joy, moddiy yordam, subsidiya, bandlik, sog'liqni saqlash, bola nafaqasi, gaz, elektr va boshqa turli masalalar bo'yicha murojaatlar ro'yhatga olinib, 10 ta murojaat joyida ijobiy hal etilib, 1 nafar fuqaroga hokim tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari berildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olinib, 9 ta murojaat egasiga huquqiy tushuntirish berildi.

Qolgan murojaatlarni o'z muddatlarida ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli tashkilot va muassasa rahbarlariga topshiriqlar berildi va ijrosi nazoratga olindi.

2022-08-30 16:48:51